

KELAJAK AVLODNI KASB TANLASHGA YO‘NALTIRISH IJTIMOIY VOQELIK SIFATIDA

Axmedova Muyassar Xadimatovna

TDPU Umumiy psixologiya kafedrasи prof. v/b., psixol.f.d.

*TDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti
amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi*

Jo‘rayeva Gulbeka Erkin qizi

E-mail: muyassaraxmedova1968@gmail.com

Tel: 94 659 27 81

Rezyume. Bu maqolada inson hayoti usun mehnat, kasb ko‘nikmalarining afzalligi, muhimligi bayon etilgan. Unda kelajak avlodni kasbga yo‘naltirishning zarurati, o‘ziga xosligi ilmiy manbalar asosida o‘rganilgan. Shuningdek unda o‘smir yoshida kasb tanlashdagi qiyinchiliklar, ularga psixologik xizmatning muhimligi ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: inson, tabiat, shaxs, individual, kasb, hunar, mutaxassis, layoqat, qobiliyat, hohish, qiziqish, intilish, mehnat.

Resume. This article describes the advantages and importance of work and professional skills for human life. In it, the necessity and uniqueness of directing the future generation to the profession is studied on the basis of scientific sources. It also shows the difficulties in choosing a profession at the age of a teenager, and the importance of psychological services for them.

Keywords: human, nature, person, individual, profession, craft, expert, ability, ability, desire, interest, aspiration, labor.

Dolzarblik. Kishilik jamiyatida insonning yashashi, turmush-tarziida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir odamning mehnat qilish ko‘nikmalari uning kasbiy layoqatini ko‘rsatib beradi. Shuning uchun insonning kelajak hayoti ko‘p jihatdan uning yoshligidan tanlagan kasb-koriga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bunda albatta ota-onalarning o‘z farzandlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlari, sharoit-imkoniyat yaratishlari, kasb-hunar egallashida moddiy-ma’naviy tomondan ta’minlab berishlariga mas’uliyatlidirlar.

Bugungi hayotda texnika-texnologiyaning shiddat bilan rivojlanayotganligi aholining aksariyat qismi mexanika, kompyuter sohasi bilan shug‘ullanayotganligi tufayli, uning tarmoqlariga oid mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbning

pedagogik-psixologik xususiyatlari, mehnat ko‘nikmalari va malakalari bilan bo‘lg‘usi ixtisoslik egalarini qurollantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Kelajak yoshlarni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo‘yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo‘lib hisoblanadi. Inson - tabiat munosabatini o‘zida aks ettiradi, shaxs omili va uning hozirgi davrda ishlab chiqarishda hisobga olish, mehnat samaradorligini oshirish, kasb mahoratini takomillashtirish uchun negiz bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy qism. Yuksak texnologiyani boshqarishga layoqatli, ijodiy, mustaqil fikrlovchi shaxslararo munosabatlarni tashkil etishga o‘quvchi mutaxassislar yetishtirishga erishilsa, ezgu niyatlar ijtimoiy hayotda qoror topgan bo‘lar edi.

Shuni alohida takidlash joizki, o‘rta maktab o‘quvchilarining hammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to‘g‘ri yo‘l tutadi, deb bo‘lmaydi albatta. Ulardan ba’zilari tavakkaliga ish tutsalar, ayrimlari ota-onasini tanlaydilar yoki ko‘zga tashlanib turgan yaqqol namunalarga taqlid qiladilar, goho sevimli kishilari izidan borishni mo‘ljallaydilar.

Ko‘pchilik o‘quvchilar ta’lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, o‘zlari yoqtirgan kasb-hunarlar haqida o‘ylaydilar.

Shaxs psixologiyasini o‘rganish o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash demakdir. O‘quvchilarining individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo‘llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to‘g‘risidagi xujjatlarda o‘quvchilarni mustaqil kasb tanlashga o‘rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta’kidlanadi.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o‘quvchilarini ularning hohishi, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so‘ngra kasbga yo‘llash kerak.

Hozirgi davrda xalq ta’limi bo‘limlarida, ishlab chiqarishda, aholini ish bilan ta’minlash muassasalarida, kollejlar va oliy o‘quv yurtlarida yoshlarga kasb tanlash yo‘lini ko‘rsatadigan maxsus kasb-hunar markazlari tashkil etilgan. Bu borada Respublika tashxis markazining, hamda joylardagi uning bo‘limlarining faoliyati ibratlidir. Bundan tashqari, malakali psixologlar va pedagoglar, murabbiylar, muhandislar va texniklar har bir kasb-hunarning o‘ziga xos tomonlari haqida malakaviy maslahatlar tashkil qilishadi. Lekin yoshlarning kasb-hunar tanlashi asosan o‘rta maktabdan boshlanadi, shunga ko‘ra o‘quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o‘quvchilarini kasbga qiziqtirish,

mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish kabi muhim vazifa turibdi.

Har qanday kasbni tanlash kasbiy alternativa va qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan tizimdan iborat (X.Tome, G.Ris, P.Siller, D.Tideman, O.Xar). Mutaxassislar kasb tanlashning sabablari sifatida tanlangan kasbning e’tiborliligi, kasbiy malakalarni talab qilish darajasi, shaxsning kasbga da’vogarlik darajasi, kasbiy ustanovlarning realligini e’tirof etishadi[8.10].

Psixologlar, bundan tashqari, o‘quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari shuningdek, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlari zarur. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, psixologiya fani bo‘yicha o‘quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam beradigan, yo‘l-yo‘riqlar va tavsiyalar, mukammal qo‘llanmalar hali to‘liq ishlab chiqilgan emas. Lekin shaxs psixologiyasiga oid amaliy va nazariy materiallar yetarli miqdorda yaratilgan. Shaxs psixologiyasi masalalarini yoritish, ya’ni shaxsning bilish qobiliyatları, aql-idroki, aql-zakovati, individual tipologik xususiyatlari, ruhiy holatlarini aniqlash yo‘li bilan uning nimalarga qodir, qanday kasb-hunarga yaroqligi to‘g‘risida aniq fikr bildirish va muayyan tavsiyalar berish mumkin.

O‘quvchilarini mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun mifik o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik qobiliyatları yuksak bo‘lishi, fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rganishi, to‘garak va qo‘srimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarga kasb-hunar to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qilishi, suhabatlar, munozaralar o‘tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko‘rgazmalari tashkil qilishlari zarur.

Ilk o‘spirinlar va o‘smirlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo‘lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari maqsadga muvofiq. Chunki yoshlar ko‘p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat’iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin[5.10].

Shuni ham aytib o‘tish o‘rinligi, mifik o‘quvchilarini kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini ko‘pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko‘pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar.

Maktabdagi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samarali bo‘lishini maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

“Dunyoga umid bilan qadam qo‘yib kelayotgan navnihol inson hayotda munosib o‘rnini topsa, u turmushidan, Vatanidan rozi bo‘lib yashaydi. Umr bo‘yi buniyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘ladi,” - deb ta’kidlagan edi I.A.Karimov[2.].

Bugungi kunda davlat va jamiyat ta’lim olishga, kasbiy yo‘lni tanlashga, kasbga o‘qish va kasb egallahsga bo‘lgan yoshlarning huquqlarini amalga oshirishga kafolat beradi.

Xulosa. Ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan kasb tanlash, kasbiy tayyorlanish, yosh mutaxassisning ishga joylanishi va ishdan qoniqishi o‘qish va mehnat motivatsiyasining shakllanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Kelajak avlod uchun zamonaviy ish joylari yaratish davr taqozosi hisoblanmoqda. Yoshlarning hayotda munosib o‘rinni egallahsga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatning dlozarb vazifalaridan biridir.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual shaxs turadi. Xolbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish darkor. Aks holda umumiyl xususiyatl yo‘llanma, ko‘rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o‘ziga xos talablarni taqozo etadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдуллаева Р.М. Касбий психология. Ўқув қўлланма. Т.2019.
2. Каримов И.А. “Юксак маънавият енгилмас куч”. – Т.: “Маънавият” 2008.
3. Давлатов К., В.Чичков “Ўқувчиларни касб танлашга йўллаш” Т.: 2008
4. Dushanov R.X, Farfiyev Yo.A. Kasbiy psixologiya.Darslik. T.2014.345 b
5. Касб психологияси. Ўқув қўлланма. ТДАУ. Тошкент 2003.
6. Фозиев Э. “Касб психологияси”.- Т.: “Ўқитувчи” 1994
7. Xolyigitova N.H., Abdumadjidova D.R. Kasbiy psixologiya. O‘quv qo’llanma. Т.2019. 544 b.
8. Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. – Blackwell Publishing Ltd, 2003. –p.10